



INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI

Ergasheva S.T.

*O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi, Pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida integrativ yondashuvning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. O'qish savodxonligini shakllantirishda til, adabiyot, madaniyat va fanlararo aloqadorlikning o'rni yoritiladi. Integrativ yondashuv o'quvchilarning matnni chuqur tushunishi, fikrni ifodalash, tahlil qilish, muhokama yuritish, hayotiy tajriba bilan bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Maqolada integratsiya asosida tashkil etilgan darslarning o'qish savodxonligiga ta'siri, interfaol va ijodiy topshiriqlarning o'rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, integrativ yondashuv, fanlararo bog'liqlik, matn tahlili, fikrlashni rivojlantirish, ijodiy topshiriqlar, boshlang'ich ta'lim, ifodali o'qish.

Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli bilim egallashlari uchun asosiy omil hisoblanadi. O'qish savodxonligiga ega bo'lgan o'quvchi matnni tushunish, undagi asosiy ma'no va xulosalarni chiqarish, shuningdek, olingan ma'lumotlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shu bois, boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodlari dolzarb masala sifatida qolmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda birinchi va eng muhim qadam – o'quvchilarga matnni to'g'ri va ifodali o'qishni o'rgatishdir. Bu jarayon quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: matnning umumiy mazmunini anglash, asosiy fikrlarni ajratish, xulosalar chiqarish, shuningdek, matn shakl va uslubini tahlil qilish. Shu bilan birga, til qobiliyati va lug'at boyligi o'quvchilarning matnni tushunish darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

O'quvchilarning o'qish jarayonida faolligini oshirish uchun ular matnni nafaqat qog'ozdagi harflardan tashkil topgan so'zlar sifatida qabul qilmasdan, balki mazmunni hayotiy kontekstga bog'lash ko'nikmalarini rivojlantirishlari muhimdir. Bu esa o'quvchilarning tafakkurini, mantiqiy fikrlashini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantiradi.

O'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash samaradorlikni oshiradi. Masalan, interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilar matn bilan faol ishlashga o'rgatiladi: matn bo'yicha savollar berish, hikoyani tasvirlash, dramatisatsiya qilish, grafik jadval va diagrammalar yordamida asosiy fikrlarni ajratish. Shu bilan birga, fanlararo bog'lanish metodlari ham qo'llaniladi – o'quvchilar



o'qilgan matn mazmunini tabiatshunoslik, matematika, san'at kabi fanlar bilan bog'lab tahlil qiladilar.

Innovatsion metodlar yordamida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va o'z xulosalarini shakllantirishga o'rgatish mumkin. Misol uchun, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va loyihalar orqali o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, texnologik vositalar (interaktiv doskalar, audio-video materiallar) yordamida o'qish jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo'ladi. O'quvchilarning o'qishga qiziqishi va motivatsiyasini oshirish ham o'qish savodxonligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kitob tanlashda yosh xususiyatlarini hisobga olish, turli mavzu va shakldagi matnlarni tavsiya etish, o'quvchilarning didi va qiziqishlariga mos adabiyotlar bilan tanishtirish zarur. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchilarning o'z qiziqishlarini aniqlab, ularga qo'llab-quvvatlash ko'rsatishi lozim. O'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishi yillar davomida o'zgarib boradi, shuning uchun boshlang'ich ta'limda bu qiziqishni uyg'otish va saqlab qolish juda muhimdir.

O'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonida darslarni rejalashtirishda quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi: matnni chuqur o'rganish, tahlil qilish va hayotiy misollar bilan bog'lash. O'quvchilarning tushunish darajasini baholash va nazorat qilish jarayonida innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish, shuningdek, mustaqil ishlashga rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Dars davomida o'quvchilar matn mazmunini to'liq anglab, undan xulosalar chiqarish, fikrlarini bayon qilish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlari lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va fanlararo bog'lanish orqali o'quvchilar matnni chuqur tushunish, mustaqil xulosalar chiqarish va o'z bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirish ularning o'qish savodxonligini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchining faoliyati va innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning intellektual va madaniy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Adabiyotlar:

1. Ergasheva, S.T. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti Nashriyoti.
2. G'anieva, N.B. (2018). Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligini oshirish usullari. Toshkent: Ta'lim nashriyoti.



3. Abdullayeva, L.M. (2020). O'quvchilarda matn tushunishni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Pedagogika.
4. Sobirov, F.X. (2017). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish. Toshkent: Fan va Ta'lim